# 2020- yil yanvar-iyn oylari uchun Andijon viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyn oylarida Andijon viloyatida jami **1970,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar–iyun oylariga nisbatan **100,4 %** ni tashkil etdi.




## 2020- yil yanvar-iyn oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo`yicha bo`linadi.




***Ma'lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **99,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o`sish surati **101,0 %** ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,0 %** ni tashkil etdi**.**



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




**O'SISH SUR'ATI 101,0 %**

2019- yil yanvar-iyn

2020- yil yanvar-iyn

***Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **49,6** % i yoki 2019- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **84,8 %)** ga to'g'ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **72,6 % i** to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **1,1 %** punktga ko’paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **100,9 %** ni tashkil etgan holda **1430,3** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to’g’ri kelgan qurilish ishlari ulushi o’tgan yilning mos davriga nisbatan **22,4** % ni tashkil etdi yoki **441,0** mlrd. so’m miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **98,9** % ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

ulushi % da, mlrd. so’m




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **129,6** mlrd. so‘m yoki 2019- yilning yanvar-iyn oylariga nisbatan **308,1 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1840,7** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati **93,4 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





# Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyn oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so’m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk * | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi % da | mlrd. so‘m | ulushi % da |
| **Viloyat bo`yicha:** | 1970,3 | 129,6 | 6,6 | 1840,7 | 93,4 |
| Andijon sh. | 636,6 | 30,4 | 4,8 | 606,2 | 95,2 |
| Xonobod sh. | 56,1 | - | - | 56,1 | 100,0 |
| tumanlar : | | | | | |
| Andijon | 311,3 | 11,2 | 3,6 | 300,1 | 96,4 |
| Asaka | 68,6 | 5,6 | 8,2 | 63,0 | 91,8 |
| Baliqchi | 40,7 | 5,6 | 13,8 | 35,1 | 86,2 |
| Bo’ston | 70,9 | 0,8 | 1,1 | 70,1 | 98,9 |
| Buloqboshi | 33,3 | 5,6 | 16,8 | 27,7 | 83,2 |
| Jalaquduq | 79,5 | 20,4 | 25,6 | 59,1 | 74,4 |
| Izboskan | 60,4 | 5,6 | 9,3 | 54,8 | 90,7 |
| Ulug`nor | 32,2 | 15,2 | 47,2 | 17,0 | 52,8 |
| Marxamat | 91,2 | 5,6 | 6,1 | 85,6 | 93,9 |
| Oltinko`l | 76,7 | 1,2 | 1,6 | 75,5 | 98,4 |
| Paxtaobod | 114,2 | 5,6 | 4,9 | 108,6 | 95,1 |
| Xo`jaobod | 67,1 | 5,6 | 8,3 | 61,5 | 91,7 |
| Shaxrixon | 171,4 | 5,6 | 3,3 | 165,8 | 96,7 |
| Qo`rg`ontepa | 60,1 | 5,6 | 9,3 | 54,5 | 90,7 |

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

## Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari,% da

### 2019- yil yanvar-iyun

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Bino va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 19,0 | 9,7 | 71,3 |

### 2020- yil yanvar-iyn

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Bino va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 15,1 | 10,9 | 74,0 |

***Ma'lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

## Bino va inshootlar qurilishi

**ulushi % da**

tarkibida Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyn oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **2,1 %** punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyn oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **0,5 %** punktga ka‘mayib, **67,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyn oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **2,9 %** punktga ko‘paydi, **30,2 %** ni tashkil etdi.



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

**ulushi % da**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **4,4 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **4,5 %** punktga ka'maydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **95,5 %** (**5,9 %** punktga ko'payib) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1 %** (**1,4 %** punktga kam).



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyn oylariga nisbatan **2,6 %** punktga ko'paydi va **19,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **80,3 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **2,6 %** punktga ka'maydi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyun oylarida

### Eng yuqori hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Andijon sh. 636,6
2. Andijon 311,3
3. SHahrihon 171,4

### Kichik hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Baliqchi 40,7
2. Buloqboshi 33,3
3. Ulug'nor 32,2



**Andijon viloyati statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: S.Hadjaev**

***Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37***